

**MEHNAT QILISH HUQUQINI BUZISH BILAN BOG'LIQ QILMISHLARNING
JINOYAT-HUQUQIY KVALIFIKATSIYASI**

Aytimova Barshinay Mu'barrek qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining yuridika fakulteti

3- bosqich talabasi

e-mail.barshinay16a@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 148-moddasida nazarda tutilgan mehnat qilish huquqini buzish bilan bog'liq qilmishlarning jinoyat-huquqiy kvalifikatsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Maqolada Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi me'yorlari qiyosiy o'rganilgan bo'lib, jinoyatning tarkibiy belgilari, subyekti, obykti, subyektiv va obyektiv tomonlari atroflicha ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, JK 148¹ va 148²-moddalarda nazarda tutilgan yangi normalar, sud amaliyotidagi muammolar va ularning huquqiy yechimlari ham tahlil qilinadi. Maqola nafaqat huquqiy tahlilni, balki hayotiy misollar orqali qilmishning amaliy ko'rinishlarini ham o'zida aks ettiradi.*

Kalit so'zlar: *mehnat qilish huquqi, g'ayriqonuniy ishdan bo'shatish, jinoyat kvalifikatsiyasi, mansabdor shaxs, mehnat muhofazasi, voyaga yetmagan shaxslar mehnati, majburiy mehnat.*

Abstract: *This article analyzes the issues of criminal law qualification for acts related to the violation of the right to work, as provided for in Article 148 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The article comparatively examines the norms of the Labor Code and the Criminal Code, and comprehensively examines the structural features, subject, object, subjective, and objective aspects of the crime. At the same time, the new norms provided for in Articles 148¹ and 148² of the Criminal Code, problems in judicial practice and their legal solutions are also analyzed. The article reflects not only legal analysis but also practical manifestations of the act through real-life examples.*

Keywords: *right to work, illegal dismissal, criminal qualification, official, occupational safety, labor of minors, forced labor.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы уголовно-правовой квалификации деяний, связанных с нарушением права на труд, предусмотренных статьей 148 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. В статье сопоставительно изучены нормы Трудового кодекса и Уголовного кодекса, подробно рассмотрены структурные признаки, субъект, объект, субъективные и объективные стороны преступления. Наряду с этим анализируются новые нормы, предусмотренные статьями 148¹ и 148² УК, проблемы в судебной практике и их правовые решения. Статья отражает не только правовой анализ, но и практические проявления деяния через жизненные примеры.*

Ключевые слова: *право на труд, незаконное увольнение, квалификация преступления, должностное лицо, охрана труда, труд несовершеннолетних, принудительный труд.*

Inson hayotida mehnat qilish huquqi bor -bu oddiy gap, lekin uning ortida juda katta ma'no yashiringan. Odamning ish joyi bor bo'lsa, u oilasini boqa oladi, farzandlarini tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini egallaydi. Ish joyidan noqonuniy mahrum etilgan odam esa birdaniga ko'p narsasini yo'qotadi: nafaqat daromad manbayini, balki o'zining qadr-qimmatini, kelajakka ishonchini, jamiyatda tutgan o'rnini ham. Afsuski, amaliyotda bunday hollar hali ham uchrab turadi. Korxonada rahbari biror xodimni xush ko'rmay qoldi va uni bahona topib ishdan bo'shatadi. Homilador ayol bo'lib qoldi, ish beruvchi esa bu “qulaylikdan” qutulishga shoshildi. Ana shu paytda jinoyat huquqi sahna chiqadi va mehnat qonunchiligining buzilishi muayyan hollarda jinoyat sifatida baholanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida fuqarolarning mehnat qilish huquqi asosiy konstitutsiyaviy huquqlar qatorida mustahkamlangan: “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalangan huquqiga egadir”.²⁷ Bu qoida oddiy e'lon emas, u davlat tomonidan kafolatlangan va barcha mansabdor shaxslarga majburiy talabdir. Mehnat qilish huquqini jinoyat-huquqiy himoya qilish muammosi mamlakatimiz huquq fanida alohida o'rin tutadi. Professor M.H. Rustamboyevning ta'kidlashicha, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar qilmishning ijtimoiy xavfliligi jihatidan boshqa ko'plab jinoyatlardan qolishmaydigan darajada xavfli. Jumladan, ish joyidan mahrum bo'lgan shaxs nafaqat moddiy jihatdan, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham katta zarar ko'radi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi mehnat munosabatlarini ancha kengroq va zamonaviylashtirilgan tarzda tartibga soladi. MK ning 2-moddasiga ko'ra, ushbu Kodeksning asosiy vazifalari qatorida “xodimlar mehnat huquqlari va erkinliklarining, shu jumladan mehnat qilishga, erkin ish tanlashga, adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlariga hamda ishsizlikdan himoyalangan bo'lgan huquqining davlat kafolatlarini belgilash” kiritilgan. Shunday ekan, mehnat qilish huquqini himoya qilish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: birinchisi mehnat qonunchiligi doirasida Mehnat kodeksi, nizomlar, buyruqlar orqali, ikkinchisi jinoyat qonunchiligi doirasida Jinoyat kodeksining 148, 148¹, 148²-moddalarini orqali. Bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi, ammo ularning chegarasini aniq belgilash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

JK 148-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning bevosita **obyekti** -fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan mehnat qilish huquqidir. Professor Rustamboyevning ko'rsatishicha, “ushbu jinoyatning obyekti fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan mehnat qilish huquqi hisoblanadi”. Bu huquq nafaqat ichki qonunchilik, balki xalqaro huquqiy hujjatlar bilan ham mustahkamlangan.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2023 yil tahriri

Xalqaro mehnat tashkilotining tegishli konventsionalari, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt mehnat qilish huquqini universal inson huquqi sifatida tan oladi. O'zbekiston ushbu hujjatlarni ratifikatsiya qilgan bo'lib, bu ichki qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish majburiyatini olishni anglatadi.

JK 148-moddasi 1-qismidagi jinoyatning **obyektiv tomoni** ikki shaklda ifodalanadi: Birinchi shakl bu bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish, ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin. Ikkinchi shakl bu ishga tiklash to'g'risidagi sud qarorini bajarmaslik. "G'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish" deganda, Mehnat kodeksida belgilangan asoslar va tartib-qoidalarga rioya etilmagan holda xodimni ishdan mahrum etish tushuniladi.²⁸ MK 102-moddasiga ko'ra, ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin. Ammo tajribada bunday hollarga turli yo'llar bilan yondashiladi. JK 148-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni esa alohida homilador ayolni yoki yosh bolani parvarish qilayotgan shaxsni:

- a) ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish
- b) ishdan bo'shatish.

Bu tarkib birlamchi qo'llanish uchun ma'muriy jazo oldidan ham jinoyat sifatida baholanadi. Sababini tushunish qiyin emas: homilador ayol ayniqsa zaif toifadagi shaxs bo'lib, uni ish joyidan mahrum etish nafaqat ayolning, balki tug'iladigan farzandning manfaatiga ham zid keladi. Qonun chiqaruvchi bu holatni og'irlashtiruvchi holat deb baholagan va jazo qo'llashning past chegarasini nazarda tutmagan.

Jinoyatning subyeksi alohida e'tiborni talab qiladi. Rustamboyevning ko'rsatishicha, "ushbu jinoyatning subyeksi ishga qabul qilish yoki ishdan bo'shatish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin". Bu degani har kim ham ushbu jinoyatni sodir eta olmaydi. Faqat tegishli vakolati bor mansabdor shaxsgina subyekt bo'lishi mumkin. Amalda bu odatda quyidagilar bo'ladi: korxonada direktori yoki uning kadrlar bo'yicha muovini, kadrlar bo'limi boshlig'i, ustav hujjatlariga ko'ra xodimlarni qabul qilish va bo'shatish vakolatiga ega bo'lgan boshqa shaxslar. Shuni ta'kidlash kerakki, oddiy xodim yoki jamoa a'zosi ushbu jinoyatning subyeksi bo'la olmaydi uning o'ziga tegishli vakolat yo'q. Subyektga qo'yiladigan asosiy talab 16 yoshga to'lganligi va aqli rasoligi (JK 17, 18-moddalari) hamda ishga qabul qilish yoki bo'shatish huquqiga egaligi. **Jinoyatning subyektiv tomoni**- Jinoyat qasddan sodir etiladi. Aybdor o'z harakatlarining noqonuniy ekanligini bilgan holda harakat qiladi yoki harakatdan o'zini tiyadi (ishga tiklash qarorini bajarmaslik). «Bila turib» iborasi jinoyat dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lib, bu ehtiyotsizlikdan sodir etilgan qilmishni jinoyat doirasidan chiqarib qo'yadi. Jinoyatning motivi va maqsadi kvalifikatsiya uchun muhim emas, javobgarlik yuzaga kelishi uchun faqat aybning qasddan shaklda bo'lishi yetarli. Biroq motiv va maqsad jazo tayinlashda hisobga olinishi mumkin: masalan, shaxsiy manfaat, zulm qilish ishtiyoqi kabi holatlar jazoni og'irlashtiruvchi sifatida baholanishi

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22 sentyabr 1994 yil. Joriy tahrir, 2025 yil.

mumkin. Bir haqiqiy hodisani esga olaylik: O'rta Osiyo hududida amalga oshirilgan tadqiqotlarda qayd etilgan holatda, xususiy firmaning egasi o'z xodimini kasaba uyushmasiga a'zo bo'lgani uchun ishdan bo'shatgan. Qonuniy asos topish uchun xodimning ish faoliyatiga oid salbiy hujjatlar yasagan. Bu yerda qasd aniq kasaba uyushmasiga a'zo bo'lganligi uchun ta'qib qilish. Motiv-huquqni suiiste'mol qilish. Bunday holda MK 4-moddasidagi kamsitish taqiqi va JK 148-moddasi birgalikda qo'llanilishi kerak.²⁹

JK 148¹-moddasi "Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish" jinoyatini nazarda tutadi. Ushbu modda bo'yicha javobgarlik voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish uchun belgilangan bo'lib, bunday qilmish uchun ilgari ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lishi shart. Bu jinoyat ayniqsa og'ir: bolaning mehnatidan naf ko'rish uchun uning sog'lig'ini xavf ostiga qo'yish, bu faqat mehnat huquqini emas, balki bolaning asosiy inson huquqlarini ham buzishdir. Xalqaro mehnat tashkilotining №182-sonli konventsiyasi bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlaydi. O'zbekiston bu konventsiyani ratifikatsiya qilgan.³⁰ Shunga ko'ra, ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda xalqaro huquq me'yorlari ham nazarda tutilishi lozim. Jinoyatning subyektiv tomoni qasddan sodir etilishni ko'zda tutadi: ish beruvchi voyaga yetmaganlikni biladi va baribir qonunga xilof ishda foydalanadi. Subyeksi - korxonalar rahbari yoki vakolatli mansabdor shaxs.

JK 148²-moddasi "Mehnatga ma'muriy tarzda majburlash" jinoyatini nazarda tutadi. Bu juda muhim norma, chunki majburiy mehnat inson qadr-qimmatiga bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri tajovuz. MK 5-moddasi "Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipini" mustahkamlaydi: «Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo'llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi». JK 148²-modda bo'yicha jinoyatning og'irlashtiruvchi holati sifatida voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilishi belgilangan bo'lib, bu holda jazo miqdori oshiriladi. Shuningdek, pedagogik xodimga nisbatan majburlash ham alohida holat sifatida nazarda tutilgan. Bu jinoyat JK 148¹ dan farqli ravishda birinchi marta sodir etilganda ham jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi oldindan ma'muriy jazo qo'llanilishi shart emas. Sababini ko'rish qiyin emas: majburlash o'z-o'zidan og'ir qilmish, u ta'qib va zo'rlik elementlarini o'z ichiga oladi.³¹ JK 148-moddasi 2-qismi bo'yicha uchraydigan amaliy muammo ish beruvchi "homiladorlikdan xabardor emasman" deb bahona qilishi. Dispozitsiyada «bila turib» iborasi ishlatilgan ya'ni xabardorlik isbotlanishi shart. Isbotlash uchun quyidagi dalillar ishlatilishi mumkin: xodimning tibbiy hujjati ish beruvchiga ko'rsatilganligi haqidagi yozuv yoki qabul dalolatnomasi, ish beruvchi bilan yozishmalar elektron pochta, xat guvohlar ko'rsatmalari ish beruvchining homiladorlikni eslatib, turli

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 2022 yildan kuchga kirgan tahrir. T.: «O'zbekiston», 2022

³⁰ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. BMT, 1966.

³¹ Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi (Maxsus qism): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: «Adolat», 2007.

harakatlar qilganligi. Shunisi ham borki, ish beruvchi shtatlar qisqaryapti, mehnat unumdorligi past kabi bahonalar bilan homilador ayolni bo'shatishga urinadi. Ammo Mehnat kodeksning 108-moddasiga ko'ra, homilador ayollarni ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatish qat'iy taqiqlanadi. Bu taqiqqa rioya etilmaganlik jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Mehnat qilish huquqini jinoyat-huquqiy himoya qilishga turli davlatlar har xil yondashadi. Rossiya Federatsiyasida ham shunga o'xshash norma mavjud bo'lib, RF JK 145-moddasida «Homilador ayolni yoki uch yoshgacha bolasi bor ayolni g'ayriqonuniy ravishda ishga qabul qilishni rad etish yoki ishdan bo'shatish» uchun maxsus javobgarlik belgilangan.

Germaniyada mehnat huquqini buzish asosan ishchi huquqlari to'g'risidagi maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi, biroq og'ir buzilishlar jinoyat sifatida ham baholanadi. Angliya va Uels huquqida ish beruvchilar huquqiy jihatdan nisbatan kuchli himoyalangan bo'lsa-da, diskriminatsiya va majburiy mehnatga nisbatan jiddiy jinoiy javobgarlik belgilangan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) standartlari bo'yicha majburiy mehnat va bolalar mehnatining og'ir shakllariga nisbatan jinoiy javobgarlik tavsiya etiladi. O'zbekiston XMT ning bir qator konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan bo'lib, bu ichki qonunchilik doirasida ham ushbu standartlarga rioya etilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

XULOSA: Mehnat qilish huquqini buzish bilan bog'liq jinoyatlar bu nafaqat huquqiy masala, balki ijtimoiy adolat masalasidir. Ish joyidan noqonuniy mahrum etilgan inson nafaqat moliyaviy yo'qotishga, balki ruhiy ezilishga, oilaviy muammolarga va jamiyatda o'rnini yo'qotishga duch keladi. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan JK 148-moddasi fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi, biroq uning qo'llanilishi ma'muriylik oldi tamoyiliga asoslanganligi sababli ba'zida cheklovchi hisoblanishi mumkin. Ikkinchidan homilador ayollar va yosh bolali shaxslarni himoya qilishga qaratilgan 148-modda 2-qismi to'g'ri qo'llanilishi uchun xabardorlikni isbotlash tizimini takomillashtirish zarur. Uchinchi JK 148¹ va 148² moddalari yangi normalar sifatida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi, biroq ularning amalda to'liq samarali qo'llanilishi uchun sud-prokurorlik amaliyotini rivojlantirish kerak. JK 257-moddasi mehnat jarayonidagi xavfsizlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi va u bilan 148-moddaning o'zaro muvofiqligi jinoyat tarkiblarini aniq chegaralash imkonini beradi. Xorijiy tajriba va xalqaro huquq standartlari bilan muqoyasa shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligi asosan zamonaviy talablarga javob beradi, biroq nozik muammolarda sudyalik ta'birini birlashtiruvchi maxsus yo'riqnomalar va Oliy sud Plenumi qarorlari zarur. Nihoyat, eng muhimi shuni aytish kerakki: qonun haqida yaxshi yozish yetarli emas, uni hayotda qo'llash va ijro etish zarur. Mehnat huquqini buzuvchi mansabdor shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik real, izchil va muqarrar bo'lishi kerak. Faqat shundagina ushbu me'yorlar o'z maqsadiga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2023 yil tahriri.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22 sentyabr 1994 yil. Joriy tahrir, 2025 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 2022 yildan kuchga kirgan tahrir. T.: «O'zbekiston», 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Joriy tahrir.
5. «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro pakt. BMT, 1966.
6. «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro pakt. BMT, 1966.
7. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Majburiy mehnat to'g'risida №29-sonli konventsiyasi. XMT, 1930.
9. Rustomboyev M.H. Jinoyat huquqi (Maxsus qism): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: «Adolat», 2007.
10. Qodirov T. Mehnat huquqi: Darslik. T.: Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti, 2020.